

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi

hududiy xay’at raisi

M. E. Xakimova



«12» dekabr 2025 y.

« TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L. X. Musadjanova



«12» dekabr 2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

Umumiy amaliyot akusheri

(sikl bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O‘QUV DASTURI

(432 kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVChILAR:

U.B.Ergasheva

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
o'qituvchisi

Z.X.G'ulomova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
o'qituvchisi

G.F.Raximova

RIO va BSIATM, shahar filiali tug'ruq
kompleksi HPB xirurgik bo'limi
boshlig'i

TAQRIZChILAR:

D.R.Axmedova

TDTU Akusherlik va ginekologiya
kafedrası t.f.n. dotsenti

Z.D.Karimov


RIO va BSIATM, shahar filiali tug'ruq
kompleksi bo'lim boshlig'i t.f.d. profesor

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12.20.25.y.


Pedagogik kengash raisi

bayonnoma № 6


L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12.20.25.y.

bayonnoma № 5

1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish kompleks chora-tadbirlari aholiga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish, hamda tibbiy xizmat samaradorligi, sifati, qamrovini oshirish uchun asos bo‘lib kelmoqda. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. ”O‘zbekistonda ilg‘or tibbiy texnologiyalarni boshqarish” Loyihasi doirasida Germaniya xalqaro hamkorlik (GIZ)jamiyati vakolatxonasi bilan hamkorlik doirasida, JSST va YUNISEF tomonidan tavsiya etilgan BTSYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yo‘riqnomalaridan foydalanilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. Modul asosida tuzilgan dasturda o‘quv fanning mazmuni uni o‘zlashtirish shakli va usullari bilan birlashgan. “Umumiy amaliyot akusheri” o‘quv dasturi o‘quv rejasiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, 7 yildan 10 yilgacha mehnat stajida uzilish bo‘lgan o‘rta tibbiyot xodimlari (akusherlar, feldsherlar)ni 432soat (3 oy) ixtisoslashtirish uchun yaratilgan.

Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlanish modulida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish haqida” 255-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida “Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish”moduli kiritildi. Kasbiy rivojlantirish modulida ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy talimning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

Umumiy amaliyot akusherlarini homiladorlik, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi davrda ayollarga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatishga tayyorlash, onalar va chaqaloqlar salomatligini muhofaza qilish, akusherlik amaliyotida zamonaviy usul va texnologiyalarni qo‘llay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. O‘qish natijasida o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Akusherlik va ginekologiya fanidan yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- sog‘liqni saqlash bo‘yicha asosiy qonunlarni, amaldagi me‘yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo‘llay bilishni o‘rgatish.
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.
- homilador ayollarni dispanser nazoratiga olish va kuzatish ko‘nikmalarini shakllantirish.
- homiladorlik davrida uchraydigan asoratlar va kasalliklarni erta aniqlash.
- fiziologik tug‘ruqni qabul qilish va tug‘ruq jarayonini to‘g‘ri boshqarish.
- akusherlikda shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.
- tug‘ruqdan keyingi davrda ona va yangi tug‘ilgan chaqaloqni kuzatish va parvarish qilish.
- reproduktiv salomatlikni saqlash va oilaviy rejalashtirish bo‘yicha maslahat berish.
- infeksiyalarning oldini olish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish.

- tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritish va statistik ma'lumotlarni shakllantirish.
- zamonaviy akusherlik amaliyotida ishlash uchun amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog'lig'ini saqlashda yo'naltirilgan samarali perinatal yordamini tashkil etish va parvarishlash, akusherlik va ginekologik yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy tashxislash, yordam ko'rsatish.
- homilador ayolning hayotiga xavf soluvchi belgilarni aniqlash, noto'g'ri ovqatlanish omillarini aniqlash.
- chilla davridagi ayolning hayotiga xavf soluvchi belgilarni aniqlash, 6 oygacha bo'lgan bolalarning istisnosiz ko'krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash.
- birlashtirilgan aholi guruhlarida orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarini erta aniqlash va xavfsiz muhitni yaratish.
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha OP, OSHP, tug'ruq komplekslari va perinatal markazlarida faoliyat yuritishni rejalashtirgan, o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, lekin mehnat stajida 7 yildan 10 yilgacha uzilish bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari (akusherka va feldsherlar) uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- O'rta tibbiyot xodimining huquqiy mas'uliyatlari, bemor huquqlari, funksional majburiyatlarini bilishi;
- etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'rganishi;
- ayol yoshiga qarab kontratsepsiya usullarini tanlashda maslahat olib borishi;
- fertil yoshdagi ayollarga kompleks yordam ko'rsatishi;
- aholiga tibbiy – profilaktika, diagnostika, davolash yordam ko'rsatishda akusherka (hamshira) ning roli haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- aholi reproduktiv salomatligini saqlashda profilaktik tadbirlarni tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- reproduktiv salomatlik, nikoh gigiyenasi, xomilador ayolni tug'ruqqa tayyorlash masalalarida maslahatlar berishi;
- homilador ayollarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishda qatnashish, fiziologik o'zgarishlarni bilish, funksional sinamalarni o'tkazish, antropometrik o'lchovlarni olishi;
- ayol hayotining barcha davrlaridagi sog'lomlashtirish, kasalliklarni oldini olishda ko'rsatiladigan akusherlik parvarishi, patronaj xizmati ishlarini tashkillashtirish, amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirishi;
- tug'ruq jarayoni normal kechayotgan tug'uvchi ayolga akusherlik parvarishini ko'rsatishi;
- tug'uvchi ayolni kuzatish va qo'llanma berish, tug'ruq jarayoni normal kechganda tug'ruqni qabul qilishi;
- bolani parvarishlashda ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha onalarga yordam berishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Onalar va bolalar o'limi ko'rsatkichlarini kamaytirish davlat sog'liqni saqlash tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Homiladorlik va tug'ruq davrida asoratlarning oldini olish uchun yuqori malakali akusher kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar va akusherlik yordamining yangi standartlarini amaliyotga joriy etish talab etiladi. Reproaktiv salomatlikni muhofaza qilish va sog'lom avlodni tarbiyalashda akusherlarning roli juda katta. Birlamchi tibbiy-sanitar yordam muassasalarida akusherlarning kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirish zarur. Ushbu dastur zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 432 kredit (kuniga 6 kredit haftada, 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish
- on/offline, masofaviy - o'qish

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa. Kuniga 6 kreditdan, haftasiga 36 kredit. Umumiy- 432 kredit

1.9. Malaka oshirishdan so‘ng: O‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Umumiy amaliyot akusherlari” yo‘nalishi bo‘yicha 432 kredit ixtisoslashtirishdan o‘tgan tinglovchiga Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta’lim (natijalari)dan so‘ng tinglovchi kompetensiyasi:

Tinglovchi “Umumiy amaliyot akusheri” mutaxassisligi bo‘yicha ixtisoslashtirish o‘quv dasturini o‘zlashtirishi natijasida mutaxassislikni xususiyatlaridan kelib chiqib, malakaviy tavsifnoma bo‘yicha yangi umumiy va malakaviy ko‘nikmalarini takomillashtiradi, quyidagi kompetensiyalari oshadi:

Umumiy kompetensiyalar:

- Aholi salomatligini mustahkamlash, sog‘lomlashtirish, profilaktikasi asoslarini;
- so‘rov o‘tkazish, jismoniy ko‘rikdan o‘tkazish, ambulator va statsionar bemorlarga tibbiy kartani yozish;
- bemorlarni tashxislashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma’lumot olish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to‘g‘ri muloqot qilish;
- tibbiy etika va deontologiya qoidalariga amal qilish;
- bemorlar bilan samarali muloqot qilish va psixologik yondashuvni qo‘llash;
- sog‘liqni saqlash tizimidagi meyoriy-huquqiy hujjatlarni bilish va amalda qo‘llash;
- sanitariya-gigiyena va infeksiya nazorati qoidalariga rioya qilish;
- tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va yuritish;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, xavf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish
- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashxislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, ko‘nikmalarni mustahkamlash;

Kasbiy kompetensiyalar:

- homilador ayollarni ro‘yxatga olish va dispanser kuzatuvini tashkil etish.
- homiladorlik davrida ayolning umumiy holatini baholash va monitoring qilish.
- homilaning holatini tekshirish (palpatsiya, auskultatsiya va boshqa usullar).
- fiziologik tug‘ruqni qabul qilish va tug‘ruq jarayonini kuzatish.
- tug‘ruqdan keyingi davrda ona va chaqaloq holatini nazorat qilish.
- yangi tug‘ilgan chaqaloqni parvarish qilish va birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.
- akusherlikda uchraydigan asoratlarni (qon ketish, gestozi, infeksiyalar va boshqalar)ni erta aniqlash.
- shoshilinch holatlarda tezkor tibbiy yordam ko‘rsatish.
- dori vositalarini to‘g‘ri tayinlash va qo‘llash.
- tibbiy manipulyatsiyalarni bajarish (inyeksiya, infuziya, kateterizatsiya va boshqalar).
- reproduktiv salomatlikni saqlash bo‘yicha maslahat berish.
- oilaviy rejalashtirish usullari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.
- homilador ayollar va yosh onalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish.
- ayollar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha profilaktik tadbirlarni tashkil etish.
- sterilizatsiya va aseptika-antiseptika qoidalariga amal qilish.
- akusherlik va ginekologik yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy tashxislashga tayyorlash, yordam ko‘rsatish va aparvarishi to‘g‘risida yangi bilimlarni o‘zlashtirish.
- homiladorlar va tug‘ruqdan keyingi davrdagi ayollarga tashrif jadvali bo‘yicha rejali ravishda yoki chaqiriq asosida uyda patronaj yordamini ko‘rsatish.
- shuningdek, ayol hayotining barcha davrlarida o‘tkaziladigan tibbiy patronajni olib borish.

3. Dastur mazmuni

3.1 “Umumiy amaliyot akusheri” 432 kredit ixtisoslashtirish kursi o‘quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot	
1.0	Kasbiy rivojlantirish modullari	96	48	48	
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-	
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	12	4	8	
1.3	Modul: Xorijiy til	12	4	8	
1.4	Modul: Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Infeksion nazorat	12	8	4	
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4	
1.7	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	4	2	
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.	18	8	10	
1.9	Modul: Hamshiralik ishi asoslari va tibbiy muolajalar algoritmi	18	6	12	
2.0	Mutaxassislik fani modullari	330	112	218	
2.1	Modul: Perinatal markaz, tug‘ruq kompleksi, oilaviy poliklinika, oilaviy shifokorlik punktlarini tuzilishi, ularni ishini tashkil etilishi va akusherkaning vazifalari.	18	8	10	
2.2	Modul: Reproktiv tizim faoliyati va xususiyatlari	24	8	16	
2.3	Modul: Reproktiv salomatlik va bexatar onalik tamoyili.	30	10	20	
2.4	Modul: Homiladorlik va tug‘ruq jarayonida akusherlik yordamini ko‘rsatish	132	44	88	
2.5	Modul: Chaqaloq adaptatsiyasi. Sog‘lom va patologiya bilan tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish.	48	16	32	
2.6	Modul: Ginekologik kasalliklar va ularda ayollarni parvarish qilish.	54	18	36	
2.7	Modul: Ayollar jinsiy a‘zolari xavfli va xavfsiz o‘sma kasalliklari va ularda ayollar parvarishi.	24	8	16	
3.0	Attestatsiya	6			6
	Jami:	432	160	266	6

“Umumiy amaliyot akusheri” 432 kredit ixtisoslashtirish kursi o‘quv modullarining mazmuni

1.1. Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Islohotlar markazida “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil ustuvor. Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor

yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2. Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralariga ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar. Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va meyorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va

mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi. Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralarini va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

1.8. Modul. Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Transportirovka usullari. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish:

o'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam, jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam. Kuyish, turlari, belgilari. Kuyishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari. Inson hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish: cho'kishda birinchi yordam, bo'g'ilishda birinchi yordam, elektrdan shikastlanishda birinchi yordam, o'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam, sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam, xasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. O'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi, kelib chiqish sabablari. Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko'llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o'pka reanimatsiyasi (SAB) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko'rsatish.

1.9 Modul. Hamshiralik ishi asoslari va tibbiy muolajalar algoritmi.

Hamshiralik ishi fani maqsad va vazifalari. Hamshiralik jarayoni bosqichlari. Hamshiralik amaliyoti asoslari. Bemorlar parvarishi, hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash va baholash. Qo'lni standart gigiyenik, xirurgik va antiseptik vositalar yordamida zararsizlantirish usullari. Steril qo'lqoplarni kiyish va yechish algoritmi. Tibbiy muolajalar algoritmi. Dori vositalarini ahamiyati, nojoya ta'sirlari. Dori vositalarni eritish. Antibiotiklarga sinama qo'yish. Teriostiga, teriorasiga, muskul orasiga, vena ichiga in'eksiyalar qilish algoritmi. Dori vositalarini saqlash, tarqatish va qo'llash. Bemorlarni klinik laborator va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash. Vakuum tizimga qon olish. Sistemani infuziyaga tayyorlash va mavjud katetrga ulash algoritmi. Bog'lov materiallari turlari, o'lchamlari va ularni tayyorlash. Tibbiy tahlillar uchun biomateriallar yig'ish.

2.0 Mutaxassislik fani modullari

2.1. Modul. Perinatal markazlar, tug'ruq komplekslari, oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlari tuzilishi, ularning ishini tashkil etilishi va akusherkaning vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi hududida akusherlik xizmatining rivojlanishi haqida ma'lumot. Tug'ishga yordam beruvchi davolash profilaktika muassasalari (tug'ruqxona, poliklinika, akusherlik – ginekologiya ilmiy markazi, perinatal markazlar) va ularning tuzilishi, vazifasi, ko'rsatadigan yordam hajmi, sanitariya – epidemiologik tartibi, akusherlikda tez tibbiy yordamni uyushtirish (tez yordam stansiyalari- 03; sanitariya aviatsiya, shahar va tuman shoshilinch yordam markazlari bo'limlari). Perinatal markazlar strukturasi va vazifalari bilan tanishtirish, Respublika perinatal markaz, shahar perinatal markaz va viloyatlarda perinatal markaz filiallari ularning tuzilishi, ishlash prinsiplari,

yuritiladigan hujjatlar ro'yxati bilan yaqindan tanishtirish. Perinatal markazda ishlovchi tibbiyot xodimlarining majburiyatlari to'g'risida kengroq tushuncha berish. O'zbekistonda "Bexatar onalik" dasturi bo'yicha ish olib borishni, dasturning mohiyatini. Reproduktiv salomatlik konsepsiyasini tushunish. JSSTning Sog'lom oilani shakllantirishning asosiy tamoyillarini bilish. Oilani rejalashtirish. Sog'lom turmush tarzini aholi o'rtasida targ'ib qilish. O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlarni va ular asosida ishlashni. Akusherka (hamshira)ning huquq va vazifalarini, zamonaviy tekshirish va davolash usullariga bemorlarni tayyorlash qonun-qoidalarini. Perinatal markazlar strukturasi va vazifalarini, Respublika perinatal markaz, shahar perinatal markaz va viloyatlarda perinatal markaz filiallari ularning tuzilishini, ishlash prinsiplarini, yuritiladigan hujjatlar ro'yxatini. Ayollarda uchraydigan kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik yordamini ko'rsatish, bemorlarni zamonaviy davolash usullariga asoslangan holda parvarishlash, kasalliklarni oldini olish choralarini o'zlashtirish. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tug'ruqxonada olib boriladigan epidemiyaga qarshi sanitariya chora tadbirlarini. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar, buyruqlar, qarorlar, nizomlar bilan tanishish. Akusherlik va ginekologiya sohasidagi yangiliklar. Akusherlik ishi va hamshiralik jarayonini olib borish. Bemor muammolarini aniqlashni. Bemorning imkoniyatiga qarab, hamshira o'zining parvarishi, davolash, yordam ko'rsatish rejasini tuzishni. Hamshira baholash va qanday natijaga erishganligini nazorat qilish. Milliy protokol asosida ish olib borish. Perinatal markazlar. Tug'ruq komplekslari. Oilaviy poliklinikalarda yuritiladigan hujjatlar bilan ishlashni. Akusherlikda tez tibbiy yordam ko'rsatishni, homilador ayollarni ro'yxatga olishni, zamonaviy tekshirish va davolash usullariga bemorlarni, homilador va tug'uvchi ayollarni tayyorlash qonun qoidalarini, Reproduktiv yoshdagi ayollarga hamshiralik yordamini ko'satishni. Reproduktiv tizimning funksional holatini aniqlashni. Bolani parvarishlashda ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha onalarga yordam berishni.

2.2. Modul. Reproduktiv tizim faoliyati va xususiyatlari.

Reproduktiv tizimning funksional holatini aniqlashni. Reproduktiv yoshdagi tug'uvchi ayollarni homiladorlikka tayyorlashni. Ayollar jinsiy a'zolari anatomiyasini. Tashqi va ichki jinsiy a'zolar tuzilishini, bachadon va uning boylamlari. Jinsiy a'zolar fiziologiyasini. Ayollar chanoq'i anatomiyasi, chanoq o'lehamlari. Tor chanoq haqida tushuncha, turlari. Hayz davri (sikli). Urug'lanish jarayonini haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

2.3. Modul . Reproduktiv salomatlik va bexatar onalik tamoyili

Reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish. Reproduktiv davr. Reproduktiv xuquq masalalari. Oilaviy shifokor yoki akusher- ginekolog bilan birgalikda homilador, tuqqan ayolni olib borish bo'yicha individual reja ishlab chiqish. Akusherka (hamshira)ning xuquq, vazifalari va tibbiyot deontologiyasi. Zamonaviy kontraseptiv vositalarining turlari, xususiyatlari, qo'llanishi va asoratlari, ayol yoshiga qarab kontrasepsiya usullarini tanlashda maslahat olib borish. Ayollar bazal haroratini o'lchashni. BIV qo'yish maqsadida bemorlarni ko'zdan kechirish va aniq turini tanlashni. BIV qo'yish paytida noxush holatlar paydo bo'lganda birinchi yordam ko'satishni bajara olishi kerak. Oilani rejalashtirishda zamonaviy kontratseptiv vositalarning turlari va xususiyatlarini. Ayol yoshiga qarab kontratsepsiya usullarini tanlashda yordam bera olishni. Ayollar bazal haroratini o'lchashni. BIV qo'yish maqsadida bemorlarni ko'zdan kechirish va aniq turini tanlashni. BIV qo'yish paytida noxush holatlar paydo bo'lganda birinchi yordam ko'satishni bajara olishi kerak.

2.4. Modul. Homiladorlik va tug'ruq jarayonida akusherlik yordamini ko'rsatish

Homiladorlikni aniqlash, homiladorlik testini o'tkazishni, homiladorlarni ro'yxatga olishni, Homiladorlikni I, II, III – trimestrlarida homilador ayol organizmidagi o'zgarishlar va bu davrlarda hamshiralik parvarishini. Preyeklampsiya va eklampsiyada yordam ko'rsatish. Homiladorlik va ekstragenital kasalliklarda hamshiralik parvarishi. Tug'ruq klinikasi, tug'ruqda qo'llanayotgan yangi texnologiyalar, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrlarda hamshiralik parvarishi. Tug'ruq. Tug'ruqning I-davrini boshqarishni. Tug'ruq biomexanizmi momentlari Tug'ruqning III-davrini faol olib borish, Akusherlikda qon ketishda birinchi yordam ko'rsatishni. Tug'ruq travmalari. Oraliq, vulva, qinning yirtilishida birinchi yordai ko'rsatishni. Akusherlikda shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatishni. Tug'ruq travmalari. Oraliq, vulva, qinning yirtilishida birinchi yordam ko'rsatishni. Akusherlikda shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatishni. Fiziologik chilla davrida ayolni parvarish qilish bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. Chilla davridagi psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar. Sut sekretsiyasini ko'chaytirish (stimullash) uchun yordam. Sut bezini o'zini-o'zi nazorat qilish usuli. Tuqqan ayol sut bezlarini ko'zdan kechirish. Ko'krak suti bilan oziqlantirishda yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etish. Mastit profilaktikasi. Ko'krak suti bilan boqishga qarshi ko'rsatma. Ko'krak sutiga qarshi ko'rsatma bo'lganda chaqaloqlarni boqish.

2.5. Modul. Chaqaloq adaptatsiyasi. Sog'lom va patologiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarga parvarishni olib borish.

Sog'lom chaqaloqni parvarishida ishtirok etish. Ahvolini aniqlash usullari bilan tanishish. Antropometriya o'tkazish. Issiqlik zanjirini 10 ta qadam bilan tanishish. Chaqaloqlarni toifalari bo'yicha tavsiflash. Chaqaloqlarni xususiyatlarini o'rganish. Tinglovchilarni chaqaloqlik davrida uchraydigan kasalliklar sabablari, belgilari parvarishlash va ularni oldini olish to'g'risida bilimlarini mustahkamlash. Tinglovchilarni chala tug'ilgan chaqaloqlarni sabablari, belgilari parvarishlash va ularni oldini olish to'g'risida bilimlarini mustahkamlash. Chala tug'ilgan chaqaloqlarga hamshiralik yordami ko'rsatish. Chala tug'ilgan chaqaloqning xususiyatlarini o'rganish va muammolarini aniqlash. Isitish usullarini o'rgatish. Reanimatsiya bo'limidagi chaqaloqlarga bolani parvarishlashda ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha onalarga yordam berishni. Reanimatsiya bo'limi chaqaloqlarga birinchi hamshiralik yordami va parvarishini olib borish. O'pka – yurak reanimatsiyasi. Yuqori nafas yo'llarini shilimshiqlardan tozalashni. Kindik qoldig'ini parvarishlashni. Ko'zga dori tomizishni. Teri va shilliq qavatlarni tozalash va parvarishlashni. Chaqaloqlar antropometriyasini o'tkazishni. Chaqaloqlarga gigiyenik vanna o'tkazishni. Oy kuni yetib tug'ilgan chaqaloqning belgilari va ularda kuzatiladigan fiziologik holatlarni. Tug'ruqxonada, uy sharoitida oy kuni yetib tug'ilgan chaqaloqni parvarishlashni. Chaqaloqlarni ovqatlanirish qoidalari, sutkalik va bir martalik sut miqdorini aniqlash (formula bo'yicha)ni. Chaqaloqlar asfiksiyasida, tug'ruq jarohatlarida, chaqaloqlarning gemolitik kasalligida chaqaloqlarga va ularning oilalariga hamshiralik parvarishini. Teri va kindik kasalliklarida, chaqaloqlar sepsisida chaqaloqlarga va ularning oilalariga hamshiralik parvarishini. To'satdan bo'lgan o'lim sindromida chaqaloq va uning oilasiga hamshiralik parvarishini. Kasal bolani shifoxonaga qabul qilish qoidasi va bola muammolarini aniqlashni. Chaqaloqlik davrida uchraydigan kasalliklarning asosiy belgilari, diagnostikasi, davolash va oldini olish tamoyillarini. Chala tug'ilgan chaqaloqlar hakida tushuncha. Chalalik darajalari va uni baholash. Chala tug'ilgan chaqaloqlarni Apgar shkalasi bo'yicha baholash. Chala tug'ilgan chaqaloqlarni oraliq holatlari. Chala tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish va ovqatlanirishni. Chala tug'ilgan chaqaloqlarda fiziologik holatlarning kechishini. Chala tug'ilgan chaqaloqlarning sutkalik va bir martalik sutga bo'lgan ehtiyojini hisoblashni bilish.

2.6. Modul. Ginekologik kasalliklar va profilaktikasi, parvarishni olib borish.

Ayollar jinsiy a'zolarini yalig'lanish kasalliklari haqida ma'lumot. Ayollar jinsiy a'zolari yalig'lanish kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Tekshirish usullari. Bemorlarni parvarishlash haqida kerakli bilim va ko'nikmalarni hosil qilish; Zamon talablariga javob beradigan, jahon standartlariga mos keladigan, yuqori malaka va kasb ko'nikmalarga ega bo'lgan, raqobatbardosh mutaxassislarini ongini yanada boyitish. Ta'limdagi va mutaxassislikga doir zamonaviy yangi tekshiruv usullarini o'rgatib borish. Ginekologiya bemorlarni doimiy nazoratini tashkil etish va ularga ixtisoslashgan maxsus yordam ko'rsatish. Tinglovchilarni Ayollar jinsiy a'zolari kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Ayollar jinsiy a'zolari yallig'lanish kasalliklari. Nospetsifik va spetsifik infeksiyalar. TORCH-infeksiyalari yuqish yo'llari, homiladorlikda keltirib chiqaruvchi asoratlari. Bepushtlik sabablari, aniqlash usullari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. Ayollarni ijtimoiy huquqiy himoyalash sanitariya-oqartuv va gigiyenik ishlarni amalga oshirish. Ayollarga va o'smir-qizlarga dastlabki ginekologik yordam ko'rsatish. Uylarda ginekologik bemorlarga patronaj xizmati ko'rsatish. Profilaktik ko'riklarni tashkil etish, bemorlarni dispanser nazoratiga olish. Dispanser hisobida turgan ginekologik bemorlarni shifokor ko'rigidan reja bo'yicha o'tishlarini tashkil etish. Ginekologiya bo'limidagi va ambulatoriyadagi o'z shifokorining ko'rsatmalarini o'z vaqtida sidqidildan bajarish. O'z ustida doimo izlanuvchan uzluksiz malaka oshirib, borish. Amenoriya turlari, kelib chiqish sabablari. Klimakterik davrda hayz siklining buzilishi. Klimakterik davrda ayol organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar.

2.7. Modul. Ayollar jinsiy a'zolari xavfli va xavfsiz o'sma kasalliklari. Hamshiralik parvarishini olib borish

Ayollarda bachadon bo'yni va tanasining o'smalariga olib keluvchi sabablar, joylashishi bo'yicha tasnifi, klinik kechishi, aniqlash va tashxis qo'yish usullari, davolash, asoratlari va oldini olish usullarini o'rganish. Bachadon miomasi. Bachadon tanasi fon va rak oldi kasalliklari. Bachadon bo'yni rakining belgilari. Bachadon tanasi rakining belgilari. Tashxislash va davolash usullari. Bachadon bo'yni va tanasini o'smalarining oldini olish tadbirlari. Bachadon bo'yni va tanasining o'smalari bilan kasallangan bemorlarni qabul qilish, aniqlash va tashxis qo'yish usullari bilan tanishish, davolash, asoratlari va oldini olish usullarini o'rganish. Bachadon miomasi bilan bemorlarni kuzatish. Rak oldi kasalliklarini ko'zdan kechirish. Onkologiya dispanserida bachadon bo'yni fon va rak oldi

kasaliklarini kuzatish. Tashxislash va davolash usullari. Bachadon bo‘yni va tanasini o‘smalarining oldini olish tadbirlarida qatnashish.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA‘MINOTI

4.1. O‘quv bazalari: Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko‘chasi-2, 14-uy, Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

4.2. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar ro‘yxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: slaydlar to‘plami bo‘lgan ppt ko‘rinishli ma‘ruzalar, ekran, video-filmlar.

Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustaxkamlash trening o‘quv honasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar.

4.3. Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

4.3.1. Qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining buyruq va me‘yoriy hujjatlari.

Asosiy adabiyotlar:

1. T.Y. Umarova va boshq. "Xamshirali ishi" Toshkent-2005

2. Allayarov Y.N. "Akusherlik" Toshkent 2007y

3. «Reproduktivnoye zdorovye i metodi kontratsepsii» Tashkent. 2008.

4. «Reproduktiv sog‘liqni saqlashomillari» Tashkent. 2008.

5. Ziyayeva M.F., Mavlyanova G.X. "Ginekologiya". Toshkent, "O‘qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2007.

6. Ayupova F.M., Jabbarova Y.K. "Ginekologiya" Toshkent. 2006.

7. Allayorov Y.N. "Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya" "Istiqlol" nashriyoti, 2005.

8. "Hamshiralik ishi protokollari" Patronaj / oilaviy hamshiralar uchun uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2010y. 1-2 qism

9. "Reproduktiv salomatlik va bexatar onalik" Salomatlik -3" loyixasi o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2012y.

10. "Ko‘krak suti bilan boqish" JSST dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. YUNISEF -2007y

11. "Onalar hamda bolalarda xavf omillarini aniqlash bo‘yicha yo‘riqnomalar va beriladigan tavsiyalar". Uslubiy ko‘rsatma. YUNISEF -2020y.

12. Akusherstvo. Rukovodstvo VOZ. UNFPA 2007

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. "Reproduktiv salomatlik va bexatar onalik" o‘quv seminar ishtirokchilar uchun qo‘llanma 2009y.

2. "Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar muammolarini hal qilish" USAID shifokorlar tibbiyot hamshiralari va akusherlar uchun qo‘llanma 2005y.

3. Svod prakticheskix rekomendatsiy po primeneniyu sredstv kontratsepsii. Izdaniye vtoroye. UNFPA 2004

4. Fozilbekova M.A., Zaynitdinova X.S. "Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi" "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2004 y.

5. Razdatochniy material 5-go semenara Proyektusa usovershestvovaniya Medsestrinskogo obrazovaniya v Respublike O‘zbekistan. «Sestrinskiy uxod v materinstve». S 20 po 22 avgusta 2007 g. Tashkent – 2007

6. E.K. Aylamazyan. "Akusherlik" SPb. Spets.lit. 2003. 528b.

7. Bodyajina V.I., Semenchenko. "Akusherlik" M. 2004.

8. "Kratkoye rukovodstvo po profilaktike infektsii" Pervoye izdaniye. Tashkent. 2004.

4.3.3. Elektron ta‘lim resurslari

- www.minzdrav.uz –

www.gov.uz

www.press-service.uz

www.parlament.gov.uz

- www.lex.uz

www.ziyonet.uz

www.medi.ru,

www.medlinks.ru,
www.med-lib.ru,
www.ksmmed.ru/pat/gynecology,
www.medsan.ru,

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar:

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruqi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baxolash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.